

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH

Gulira'no Yo'ldasheva

Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi II bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6857073>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'qitishda bolalar ishtiroki, ularning aqliy salohiyatlarini oshirish, shuningdek, ushbu fan bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan alohida ishlash, ularning qobiliyatlarini yetarlicha baholagan holda ular uchun alohida darslar tashkil etish, matematika fani borasida fan musobaqalari o'tkazish kabi mavzular batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: matematika, iqtidorli o'quvchilar, darsdan tashqari mashg'ulotlar, aqliy salohiyat, qobiliyat, qo'shimcha topshiriq.

РАБОТА С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье подробно освещаются такие темы, как участие детей в преподавании уроков математики в младших классах, повышение их интеллектуального потенциала, а также отдельная работа с одаренными учащимися по данному предмету, организация для них специальных уроков с достаточной оценкой их способностей, проведение соревнований по предмету математики.

Ключевые слова: математика, одаренные учащиеся, внеурочная деятельность, умственный потенциал, способности, дополнительное задание.

WORKING WITH GIFTED CHILDREN IN TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY GRADES

Abstract. This article covers in detail such topics as the participation of children in teaching mathematics lessons in elementary grades, increasing their intellectual potential, as well as separate work with gifted students in this subject, organizing special lessons for them with a sufficient assessment of their abilities, holding competitions in the subject mathematics.

Keywords: mathematics, gifted students, extracurricular activities, mental potential, abilities, additional task.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki matematika inson hayotida yetakchi ahamiyatga ega kasb bo'lib, puxta o'rganish va doimiy o'qish va izlanishni talab etuvchi fandır. Shuning uchun ham, matematika saboqlari bolalarga ota-onalari tomonidan, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari tomonidan berib boriladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Shuni ham yodda tutish kerakki, 1-sinfga kelgan har bir bola turlicha salohiyatga ega. Bunga sabab ayrim bolalar maktabgacha ta'lim olish dargohlarida yoki ota-onalari yordamida dastlabki matematik tushunchalar berilgan holda maktabga kelsa, ayrimlari umuman bu fan haqida tushunchaga ega bo'lmagan holda kelishlaridir. Bunda o'qituvchining vazifasi bolalarni matematik salohiyat darajalarini o'zaro teng holga keltirish va har bir o'quvchi bilan individual tarzda ishlash hisoblanadi. Ana shundagina bolalar o'rtasida bilim jihatidan tabaqalanishni oldini oish uchun zamin yaratiladi. Biroq baribir har bir sinfda olgan bilimlarining yodida

mustahkam o'rnashishi, matematik tushunchalar, matematik misol va masalalarning shartini tez tushunub tahlil qila olish, yechimini topishda boshqa o'quvchilarga nisbatan tezligi, mana shu fan yuzasidan qobiliyatlari bilan ajralib turuvchi bolalar har bir sinfdan ajralib turadi.

Mana shunday vaziyatda o'qituvchi oldida bir qancha murakkabliklar kelib chiqishi mumkin. Ya'ni agar ustoz misol va masalalar ishlashda masalani tez tahlil qiladigan, tez yechimga yetib boradigan o'quvchilar bilan ishlayversa, oqibati qolgan o'quvchilarning misollarning mohiyatiga yetib bora olmaslikka, fanga bo'lgan qiziqishning susayishiga va o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Va aksincha holda o'qituvchi faqat tushunmagan o'quvchilar bilan ishlayversa va iqtidorli o'quvchilarni o'z holiga qo'yib qo'ysa, ularning ham qiziqishlari so'nishiga, o'qituvchining aytganlarini ba'zan jo'rttaga qilmaslikka olib keladi. Mana shunday vaziyatlarda o'qituvchi barchaga teng e'tiborli bo'lishga, har birining salohiyatidan kelib chiqqan holda (pastroq o'zlashtiruvchilarga sodda misollar, yuqori o'zlashtiruvchilarga murakkab savollar berish orqali) ular bilan ishlashga odatlanishi lozim bo'ladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Iqtidorli bolalar mavzuni tez tushuna oladilar va tahlil qila oladilar. Biroq bir mavzuning qayta va qayta o'tilishi boshqa o'quvchilarga mavzuning tushunarliroq bo'lishini ta'minlansa, ularni zeriktirishi mumkin. Mana shunday hollarda o'qituvchi ularga qolganlarga nisbatan murakkabroq bo'lgan topshiriqlar berishi, darsdan tashqari mashg'ulotlarda mavzuga oid, biroq darsliklarda keltirilmagan ma'lumotlarni kengroq qilib berishi, ko'proq vazifa yuklatishi lozim bo'ladi. Ana shundagina ular darslardan zerikib qolmaydilar va qo'shimcha bilimlarga ega bo'ladilar. Biroq ularga qo'shimcha bilim berish jarayonida o'qituvchi iqtidorli o'quvchining boshqalarga nisbatan aqlliroqligi va darslarda o'zib ketganligini qolgan bolalarga ko'p ta'kidlamasligi darkor. Chunki buning sabababidan ularda tushkun kayfiyat, o'rtoqlaridan ortda qolib ketganligini his qilish, bu esa o'z navbatida o'qishga, bilimga bo'lgan qiziqishning susayishiga olib keladi.

MUHOKAMA

Iqtidorli bolalar o'rtasida matematika fanidan bilimlar bellashuvi musobaqalarini o'tkazib turish ham maqsadga muvofiq. Bu ular o'rtasida do'stona raqobatning kuchayishini, o'ziga bo'lgan ishonchining ortishini ta'minlaydi. Va jarayon orqali o'qituvchi ham o'quvchi ongida qaysi muammoli vaziyat borligini, qaysi mavzuni to'la tushuna olmaganini, qaysi mavzuda oqsayotganini ham bilishi mumkin bo'ladi. Iqtidorli bolalar ishlash jarayonida bolalarga bilim berib boorish bilan birgalikda ularga tengdosh do'stlariga matematik masalalarni ishlash jarayonida, tushunmagan mavzulari va muammoli savollariga javob topishda do'stona ko'mak berish kerakligini ham uqtirish lozim bo'ladi. chunki ayrim o'quvchilar tushunmagan narsalarni sinf ichida ustozdan so'rashga uyalishlari, tortinishlari mumkin. Bu bilan go'yoki barcha tengqurlaridan bilimda orta qoib ketayotganini ko'rsatgandek his etadilar, tengdoshlarining ustidan kulishidan ichki qo'rquvni boshidan o'tkazadilar. Mana shunday holatlarda o'quvchilardagi uyatchanlik sabab tobora darsda orqada qolib ketishlari, natijada yanggi mavzularni yaxshi o'zlashtirilmaliklari mumkin.

XULOSA

O'qituvchi bunda quyidagicha yo'l tutishi lozim. Mana shunday o'quvchilarni o'ziga nisbatan uquvliroq o'quvchilar bilan birlashtirib qo'yish foydali. Chunki ular o'qituvchidan so'rashdan tortinsalar ham, o'z tengquridan tortinmaydi. Buning natijasida o'quvchi nafaqat

bilmagan savollariga javob topa oladi, balki o'zaro do'stona aloqalarning ham mustahkamlanishiga olib keladi. Sinfda do'stona ruh yaratiladi. Bolalarda o'zgalarga mushkul vaziyatda yordam qo'lini cho'zish kabi oliyjanob fazilatlar shakllanadi.

REFERENCES

1. „Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi” Bikbaeva.N.
2. „Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi” S.Alixonov.
3. „Matematika o'qitish metodikasi” M.E.Jumaev.
4. „Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi” M.E.Ju